

KIBERMAKONDA MAVJUD O'ZIGA XOS TAHDIDLAR

UNIQUE THREATS EXISTING IN CYBER SPACE

КОНКРЕТНЫЕ УГРОЗЫ СУЩЕСТВУЮЩИЕ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ

Berkinov Oybek Toxir o'g'li¹¹Berkinov Oybek Toxir o'g'li

– Chirchiq davlat pedagogika universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada kibermakon tushunchasining nazariziy-metodologik asoslari yoritilgan. Kibermakonda mavjud tahdidlar qiyosiy jihatdan tahlil qilingan va xalqaro maydonda kibertahdid muammosi yuzasidan qilingan nazariy va amaliy ishlar o'rganilgan.

Аннотация

В данной статье рассмотрены теоретико-методологические основы понятия киберпространство. Сравнительный анализ существующих угроз в киберпространстве и изучение теоретических и практических работ по проблеме киберугроз на международной арене.

Abstract

This article describes the theoretical and methodological foundations of the concept of cyberspace. Existing threats in cyberspace are comparatively analyzed and the theoretical and practical work done on the problem of cyber threats in the international arena is studied.

Kalit so'zlar: kibermakon, kibertahdid, axborotlashuv, elektron dunyo, kiberhujum.

Ключевые слова: киберпространство, киберугроза, информатизация, электронный мир, киберзапугивание.

Key words: cyber space, cyber threat, communication, electronic world, cyber attack.

KIRISH

Kibermakon ham insoniyat tamadduni uchun misli ko'rilmagan qulayliklar, imkoniyatlar berishi bilan birgalikda, turli xafv-xatarlarning avj olishiga ham sabab bo'lmoqda. Chunki, cheksiz-chegarasiz mazkur vosita bugun buzg'unchi kuchlarning asosiy quroli va g'oyalarini targ'ibot qiluvchi qurol vazifasini ham bajarmoqda.

Afsuski, "elektron dunyo" turli siyosiy kuchlar uchun o'zlarining terroristik, ekstremistik tashviqotlar va g'oyalari, o'z qarashlarini ommaga targ'ib qilish, har xil jinoiy to'dalar faoliyatlarini amalga oshirish yo'lida asosiy qurol sifatida foydalanishmoqda. Yirik salbiy kuchlarning internet tarmog'ida o'zlarining mafkuraviy maydonlarini yaratib, internetda keng qamrovli axborotli terror – "elektron jihad" olib borayotgani, global va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar, muammolar paydo qilayotganlari dunyo mamlakatlari oldida axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini keltirib chiqarmoqda[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

MDH doirasida «kibermakon» muammosining falsafiy jihatlarini A.R.Barishev, R.I.Vilkov, O.I.Radina, S.L.Vacenev, D.Y. Poverennaya kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Bundan tashqari, kompyuterdagi «estetik ehtiyojlar» va ularning transformatsiyasi masalalari N.Viner, S.I.Orexov, D.I.Dubrovskiy, R.F.Abdiev, D.V.Ivanov, M.B.Ignatev va boshqa olimlar tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan, bu virtualistikaning butun muammolarini dolzarblashtirish va uni fan sifatida shakllantirishga turtki berdi. Rossiya olimi I.A.Vasilenko istalgan davlatning kuchi va ta'siri uning axborot makonidagi o'rni bilan bevosita bog'liqligini tushuntirishga harakat qilgan.

O'zbekistonda kibermakonning ontologik, gnoseologik, epistemologik va dialektik asoslarini tadqiq etgan olimlar qatoriga G.G'.G'affarova, A.K.Turashbekova, A.G.Muminov, A.Muxtorov, B.R.Karimov, Z.D.Davronov, N.A.Shermuxeimova, E.M.Izzetova, Sh.S.Qo'shoqov, I.Saifnazarov, V.Xayrullaeva, M.Nurmatova, N.B.Abdullaeva, O.G'aybullaev, T.Sultanova, M.Z.Abdullaeva kabilarni kiritish mumkin[3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Axborotlashuv jarayonining rivojlanishi kompyuter jinoyatchiligi va kompyuter terrorizmi kabi yangi jinoyatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Yangi va o'rganilmagan jinoiy soha sifatida insoniyat uchun xavfli hisoblangan kiberterrorizm muammosini hal etish alohida e'tibor talab qiladi. Internet tarmog'idagi ochiq manbalar orqali biologik, kimyoviy hattoki yadro qurollarini tayyorlash texnologiyalarini o'rgangan holda amalga oshirilayotgan terrorchilik harakatlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar e'tiborini tortmoqda. Saytlarni noqonuniy yo'llar bilan buzish orqali kiberterrorchilar turli maxfiy ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Kiber makonda davlatlar milliy xavfsizligiga, siyosatiga aralashuvlar paydo bo'ldi. Bu tizimning rivojlanishi yangi bir muammoni ham keltirib chiqardi. Bu muammo kiber hujumlardir. Kiberhujum – bu kibermakonda aktivga ruxsatsiz kirish yoki ruxsatsiz foydalanish orqali ma'lumotlarni oshkor qilish, o'zgartirish, o'chirish, yo'q qilish, o'g'irlash yoki olish uchun har qanday urinishdir. Barcha zamonlarda, ayniqsa, hozirgi taraqqiy etib borayotgan zamonda axborot eng katta qurol ekanligini hisobga olsak, kiberhujumlarning ham asosiy nigohi axborotlarga ega bo'lishlikdir[4].

Kiber hujum bu kompyuter axborot tizimlari, infratuzilmalari, kompyuter tarmoqlari yoki shaxsiy kompyuter qurilmalariga qaratilgan har qanday tajovuzkor manevr turidir. Kiber hujumlar kiberjang yoki kiberterrorizmning bir qismi bo'lishi mumkin. Kiber hujum suveren davlatlar, shaxslar, guruhlar, jamiyat yoki tashkilotlar tomonidan ishlatilishi mumkin va bu noma'lum manbadan kelib chiqishi mumkin. Huquqiy ekspertlar kiberhujum atamasini jismoniy ziyon yetkazadigan hodisalar bilan cheklashni, uni odatdagi ma'lumotlar buzilishidan va kengroq hakerlik harakatlaridan ajratib ko'rsatishga intilmoqda.

Kiberhujumlar tobora takomillashib va xavfli bo'lib qoldi. 1980-yillarning oxiridan boshlab kiberhujumlar bir necha bor rivojlanib, axborot texnologiyalaridagi yangiliklarni kiber jinoyatlar uchun vektor sifatida ishlatmoqda[4]. So'nggi yillarda kiberhujumlarning ko'lami va mustahkamligi tez sur'atlarda o'sib bormoqda, buni Jahon iqtisodiy forumi o'zining 2018-yilgi hisobotida kuzatgan: "Hujumkor kiber imkoniyatlar bizning dushmanlik hodisalarini ko'rib chiqish qobiliyatimizdan ko'ra tezroq rivojlanmoqda".

2000-yil may oyida Internet Engineering Task Force RFC 2828-dagi hujumni quyidagicha aniqladi: aqlii tahdiddan kelib chiqadigan tizim xavfsizligiga qarshi hujum, ya'ni xavfsizlik xizmatlaridan qochish va tizimning xavfsizlik siyosatini buzish uchun qasddan qilingan urinish (ayniqsa usul yoki uslub ma'nosida) bo'lgan aqlii harakat. Amerika Qo'shma Shtatlarining Milliy xavfsizlik tizimlari qo'mitasining 2010-yil 26-apreldagi 4009-sonli CNSS yo'riqnomasida hujum quyidagicha ta'riflanadi: axborot tizimi resurslarini yoki ma'lumotni o'zi to'plash, buzish, rad etish, yomonlash yoki yo'q qilishga urinayotgan har qanday zararli faoliyat. Zamonaviy jamiyatning axborot va kompyuter tarmoqlariga tobora ko'proq qaramligi (ham xususiy, ham davlat sektorida, shu jumladan harbiy sohada) kiberhujum va kiberjang kabi yangi atamalarni keltirib chiqardi.

Kiberterrorizm aslida axborot texnologiyalari ichki faoliyatiga noqonuniy aralashish, kompyuterda mavjud dasturlar yoki ma'lumotlarni maqsadli ravishda yo'q qilish, zarar keltirish, davlat organlarining muhim qismlari faoliyatini izdan chiqarish bilan birga insonlar hayotiga xavf solish, moddiy zarar keltirish yoki ommaviy qo'rqitish, harbiy nizolar kabi turli zararli oqibatlarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatdir. Kiberterrorizmning shiddat bilan o'sib borishining yana bir sababi, u qurol-yarog' yordamida amalga oshiriladigan terrorchilik harakatidan arzonga tushadi, jangovar harakatlar, portlashlar, xunrezliklar bo'lmaydi. Buzg'unchi harakatlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Internet tarmog'i o'zining tezkorligi, tejamkorligi va ochiqligi, nazoratning sustligi yoki umuman yo'qligi, dunyo bo'ylab tarqalgan foydalanuvchilarning mavjudligi, axborotlarning tez va arzon yo'l bilan to'liqligicha tarqatilishi, hamfikir guruhlarining tashkil etish mumkinligi, aloqalarning anonim ekani, asl manbani aniqlash imkonsizligi, strategik obyektlar, harbiy tashkilotlar kompyuterlariga noqonuniy ulanish imkonining mavjudligi, tarmoqlarning yashovchanligi bilan terrorchi tashkilotlarni o'ziga jalb qilayotir. Bugun terrorizm terrorchilar yashirib yurgan yoki bosh qarorgohlari joylashgan muayyan davlat hududi bilan chegaralanib qolayotgani yo'q. Ular allaqachon kiber olamga ko'chib ulgurganlar. Terrorchi tashkilotlar o'z saflarini kengaytirish hamda maqsadlariga erishishda texnika va internetning so'nggi imkoniyatlaridan ustamonlik foydalanmoqdalar[5]. Shu yo'l bilan terrorchilik harakatlari, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot

berish, o'z g'oya va mafkurasini omma orasida tarqatish bilan birga internet foydalanuvchilariga axborot-psixologik ta'sir o'tkazish, odamlar o'rtasida vahima uyg'otish, terrorchilik harakatlarini qo'llab-quvvatlash uchun mablag' yig'ish, zaharli moddalar, portlovchi vosita va qurilmalar hamda ularni tayyorlash texnologiyasi haqida ma'lumot berish, terrorchilik tashkiloti safiga yangi a'zolari qabul qilish singari harakatlarni amalga oshirishmoqda.

Hozir psixologik jihatdan ishlov berilgan, jangarilarning jihodiy nashidalar bilan yo'g'rilgan videoroliklari bilan bir qatorda mobil ilova-yu, terrorchilar belgisi aks ettirilgan buyumlarni sotib olish imkonini beruvchi internet do'konlar ko'payib borayotganiham kiberterrorizmning tarkibiy unsurlariga aylangan. Biz ana shun xavfdan har doim ogoh bo'lshimiz, farzandlarimizni ularning ta'siridan har tomonlama himoya qilishimiz lozim. Shu bilan bir qatorda, Braziliya, Filippin, Quvayt va Vatikan kabi davlatlar kibermakonidagi internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil telefonlar va ilovalardagi din bilan bog'liq muammolar avj olayotganini bilib olish mumkin. Kibermakonda dinning vujudga kelganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, o'zining turli-tumanligi va jamiyat hayotining har sohasi va har qatlamini qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir. Zero, mazkur yo'nalishdagi jarayonlar nafaqat u yoki bu davlatda, balki, mustaqil O'zbekiston sharoitida ham rivojlanib borayotgani hech kimga sir emas. Shuni e'tiborga olgan holda, mazkur mavzu doirasidagi ilmiy tadqiqotlarni tahliliy o'rganib, jamiyatda kuzatilishi mumkin bo'lgan muammolarga echim topish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zero, bugungi globallashuv jarayonida, axborot asrida "o'rgimchak to'ri" deb, atalgan internet tarmog'i orqali har qanday ma'lumotni, g'oyani dunyoni istalgan joyiga bir zumda yetkazish imkoniyati bor.

XULOSA

Kibermakon tushunchasi o'zida barcha sohalarini qamrab oluvchi ijtimoiy texnik fenomendir. Turli ilmiy adabiyotlarni tahlil qilgan holda kibermakon tushunchasiga quyidagicha ta'rif berdik:

- *texnik jihatdan*, internet, telekommunikatsiya tarmoqlari, kompyuter tizimlari va o'rnatilgan protsessor va tekshirgichlarni o'z ichiga olgan axborot texnologiyalari infratuzilmalarining o'zaro bog'liq tarmog'i;

- *ijtimoiy jihatdan*, insonlar o'rtasida o'zaro axborotlar, g'oyalar, mafkuralar almashadigan virtual muhit;

- *psixologik jihatdan*, inson ruhiyatidagi transformatsiya jarayoni atributlar – shakl, mazmun, kompozitsiya, joylashuv, ohang, matn va rang uyg'unligi, garmoniya, ritm, uslub hamda ularning sifat va miqdor jihatdan o'zgarishlar yuzaga keluvchi maydon;

- *siyosiy jihatdan*, kibermakon siyosiy kontekst bilan chuqur bog'langan ijtimoiy – texnik haqiqatdir;

- *ma'naviy jihatdan*, turli xil jamiyatlarda shakllangan madaniyatlarni, qarashlarni, qadriyatlarni o'zaro bog'laydigan va insonlar ma'naviyatida transformatsiyalarga sabab bo'luvchi makon [6].

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://lex.uz/docs/4071401>
2. BMT Bosh Assambleyasining 2002 yil 20 dekabrda "Global kiberxavfsizlik madaniyatini yaratish" rezolyutsiyasi, y 57/239. Mavjud: http://www.un.org/ru/ga/second/57/second_res.shtml.
3. 2003-yil 12-dekabrda "Axborot jamiyati qurilishi – yangi asrda global vazifa" tamoyillari deklaratsiyasi. <https://zakon.rada.gov.ua/laws>
4. Гулчеҳра Ғаффарова, Алишер Абдуллаев. Аxbоротлашган жамиятда маънавий ҳаётнинг ўзига хос хусусиятлари // Academic research in educational sciences. 2021. B-75-86
5. G'affarova G.G., Yo'ldoshev A. (2022). Klaster tushunchasining falsafiy mohiyati // International scientific and practical conference "Modern psychology and pedagogy: problems and solutions". – Angliya, 28 mart, P.322-328.
6. Berkinov O.T. Changes in media culture and human thinking // Инновации в технологиях и образовании: XV Международная научная конференция. Болгария., С.16-17.
7. Berkinov O.T. Ijtimoiy tarmoq: yoshlar va "kelajak" // NamDU ilmiy Axborotnomasi, 3-son., B.181-187.
8. Yo'ldashev A. A. Ta'limga e'tibor - kelajakka e'tibor // Barqaror rivojlanishda uzluksiz ta'lim: muammo va yechimlar: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy ishlar to'plami. – Toshkent, B.340-341.